

UDK: 633.11-631.89

**KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING DON SIFAT
KO'RSATKICHI VA DON TARKIBIDAGI TEMIR MODDA MIQDORIGA
ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING TA'SIRI**

Sardor Shermurodov, tayanch doktorant,

**Diyor Jo'raev, q.x.f.d., k.i.x.,
Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.**

***Annotatsiya.** Bugungi kunda aholi sonining keskin o'sib borishi evaziga don mahsulotiga bo'lgan talab ham tobora ortib bormoqda. Bozorlarda xalq talabiga javob beradigan donning texnologik sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bug'doy doni tarkibida taxminan 6 dan 20% gacha oqsil mavjud bo'lib, uning miqdori bevosita ko'plab omillarga, xususan, oziqa sharoitiga bog'liqdir. Mazkur maqolada yumshoq bug'doy navlarining don sifat ko'rsatkichi va don tarkibida temir moddasi miqdori keltirib o'tilgan.*

***Аннотация.** Сегодня в связи с быстрым ростом населения увеличивается и спрос на зерновые продукты. Важно иметь высокий технологический показатель качества зерна, соответствующий спросу населения на рынках. В пшенице содержится приблизительно от 6 до 20% белка, содержание которого непосредственно зависит от многих факторов, а в частности от условий питания. В данной статье упоминается показатель качества зерна сортов мягкой пшеницы и количество железа в зерне.*

Annotation. Today, due to the rapid growth of the population, the demand for grain products is also increasing. It is important to have a high technological quality indicator of the grain that meets the demand of the people in the markets. Wheat contains approximately 6 to 20% protein, the content of which directly depends on many factors, and in particular on nutritional conditions. In this article, the grain quality indicator of soft wheat varieties and the amount of iron in the grain are mentioned.


Bug'doy eng ko'p tarqalgan asosiy donli ekinlaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko'prog'i oziq-ovqat sifatida bug'doy nonidan foydalanadi. Bug'doy nonning tarkibida oqsil va kraxmal ko'p, oqsil moldalar asosan kleykovina tarkibida bo'lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi. Bug'doy noni o'zining ta'mi, to'yimliligi va hazm bo'lishi bilan yuqori baholanadi. Bug'doy donining tarkibida uning naviga, ekish sharoitiga qarab 11,0% dan 18-19% gacha oqsil moddasi bo'ladi. Bug'doy nonidagi oqsilning hazm bo'lishi 95% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, bug'doy donidan yorma tayyorlanadi, uning uni makaron va konditer sanoatida ishlataladi. Дробыши А. Б. Та'kidlashicha, seleksiya ishlarida eng muhim masalalardan biri ota-onas juftliklarini to'g'ri tanlash masalasıdir. Navlar xilma-xilligini oldindan baholashning asosiy usuli bu nav namunalarida biologik hosildorlik va hosil elementlarini qiyosiy o'rganishdir. Kelajakda hosilni tashkil etadigan eng muhim element bu – boshoq mahsuldorligi va mahsuldor poyalar sonidir. O'z navbatida boshoq mahsuldorligi donning yirikligi va 1000 ta don massasi kabi xususiyatlardan iborat [1]. Don shakllanishida 1000 dona don vaznining yuqori bo'lishi mo'l va barqaror hosil olishini hal qiluvchi belgisidir. Tuproqda namlik yetishmasligi, yuqori harorat, zamburug' kasalliklari bilan zararlanish 1000 dona don vaznining kamayishiga olib keladi [2]. Bug'doyning sifatini aniqlaydigan muhim belgilardan biri bu undagi oqsil miqdoridir. Oqsil miqdorining ko'p yoki kam bo'lishiga navning biologik xususiyati, yetishtirish uslubi va iqlim sharoitlari ta'sir etadi [3]. Olimlarning ta'kidlashicha, dondag'i oqsil miqdori va sifatini oshirish

manbalaridan biri bug‘doyning yuqori texnologik xususiyatlarini bir xilda shakllantirishni ta’minlaydigan mahsuldor navlarini yaratishdir [4]. Olib borilgan tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutidagi Y.Omonov tajriba dalasida amalga oshirildi. Laboratoriya sharoitida kuzgi bug‘doy navlarning don sifat ko‘rsatkichi aniqlandi. Bunga ko‘ra, donning 1000 dona don vazni o‘lchanganda 39-42 gr gacha bo‘lganligi kuzatildi. “Yaksart” navi 42 gr bo‘lib, qolgan navlarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatganligi kuzatildi. “G‘ozg‘on” navi 41,8 gr gacha, “Hisorak” navi 40 gr bo‘lganligi izohlandi. Bug‘doy doni tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori uni yetishtirish sharoitiga, qo‘llaniladigan agrotexnika usullariga, nav xususiyatlariga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bug‘doy navlari doni tarkibidagi oqsil miqdorining ko‘payishiga iqlim sharoitlari, shimoldan janubga va g‘arbdan sharqqa tomon ekilishi ham ortib borishiga sabab bo‘ladi. Oqsil miqdoriga havoning nisbiy namligi, quyosh nurining tushishi, azot miqdori va agrotexnik tadbirlar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Quzgi yumshoq bug‘doy navlarida don tarkibidagi oqsil miqdor ko‘rsatkichiga ildizdan tashkari temir ultra dispers kukun biostimulyatori suspensiyasi bargi orqali qo‘llanildi. Olingan natijalarga ko‘ra, kuzgi bug‘doy navlarida oqsil miqdor ko‘rsatgichi 16,7-18,6% gacha bo‘lganligi kuzatildi. Yuqori ko‘rsatgich ko‘rsatgan navlardan “Turkiston” 18,6%, “Hisorak”, “Bunyodkor”, “Shams”, “Yaksart”, “G‘ozg‘on”, navlari 16,7-17,9% gacha oqsil miqdori borligi kuzatildi. Hozirgi kunda kuzgi yumshoq bug‘doy navlarning yangi navlarini yaratishda seleksionerlar oldiga donining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan, kuchli bug‘doy talablariga javob beradigan yangi navlarni yaratish vazifalari qo‘yilmoqda. Tadqiqotlarimizni o‘tkazish davomida donining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan bug‘doy navlarini tanlash, ularni urug‘chilik maydonlarga ekib o‘rganishdir. Shuningdek kuzgi yumshoq bug‘doy navlarda don tarkibidagi kleykovina miqdori 25,9-30,18% gacha bo‘lganligi kuzatildi. Bunda “G‘ozg‘on” navi 30,18% bo‘lib yuqori natija ko‘rsatganligi kuzatildi. “Turkiston”, navi 27%, “Yaksart” navi 29,4% kleykovina miqdori borligi aniqlandi. Yumshoq bug‘doy navlarda IDK ko‘rsatgichi 66,8-100,6% bo‘lganligi

kuzatildi. “G‘ozg‘on” navi 91,4% bo‘lganligi aniqlandi. 2-sinf (yaxshi) guruhga mansub bo‘lgan 2 ta nav aniqlanganligi kuzatildi. Donning sifatini belgilovchi shishasimonlik, yaltiroqligi yoki qattiqlik bug‘doy naviga xos belgidir. Donning yaltiroqlik sifati namlik ortiqcha bo‘lgan, azot yetishmagan sharoitda pasayadi. Donning shishasimonligi navlarda 55,9-86,2% gacha bo‘lganligi kuzatildi. “Shams” navida 86,2% bo‘lib, shishasimonligi yuqori natija ko‘rsatdi. “Bunyodkor” navi 80,5%, “G‘ozg‘on” navi 80,3%, “Yaksart” navi 82,3%, “Turkiston” navi 83,4% shishasimonlik bo‘lganligi aniqlandi.

Bug‘doyda temir moddasi 1,2 mg tashkil etadi. Kuzgi bug‘doy navlari don tarkibidagi temir moddasi laboratoriya sharoitida aniqlanganda 0,95-1,86 mg bo‘lganligi kuzatildi. Bunda “Hisorak” va “Turkiston” navlarida 1,86 mg bo‘lib, yuqori ko‘rsatgich ko‘rsatganligi kuzatildi. “Shams”, 1,7 mg “Yaksart” navlarida 1,69 mg, bo‘lganligi aniqlandi.



I-rasm. Hosil bo‘lgan kul ranggi oq, kremsimon, pushti rang

Xulosa o‘rnida: Janubiy mintaqada ekib o‘rganilgan kuzgi yumshoq bug‘doy navlarining donning sifat ko‘rsatgichlari laboratoriya sharoitida aniqlandi va yuqori natija ko‘rsatganlari tanlab olindi. Bunga ko‘ra, don tarkibidagi temir moddasi “Hisorak” va “Turkiston” navida 1,86 mg bo‘lib, yuqori natija ko‘rsatganligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дробыш, А. В. Использование внутривидовой гибридизации в селекции озимой мягкой пшеницы / А . В. Дробыш, Г. И. Таранухо // Вестник БГСХА. - 2017. -№2. - С. 30-34.
2. Musurmonov D., Amanov A.A., Aliqulov S.M. Kuzgi yumshoq bug‘doy nav namunalarining qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan boshlang‘ich manbalari//Qishloq xo‘jalik ekinlarining genetik resurslari: holati va foydalanish istiqbollari. O‘simgilikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilganligining 90 yilligiga bog‘ishlangan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, (18 avgust 2014 y), Toshkent. 2014, - B. 88-92.
3. Muhammad T. “G‘allakorlarga mahalliy navlar”// “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. №7. 2005. - B. 16.
4. Islomov S., Abduazimov A. Don sifati yuqori bug‘doy navlarini yaratishda biotik va abiotik omillarning ta’siri. // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali . 2013 yil, -5 son. –B. 28